



CONSTRUCTIVE INFLUENCE OF NATIONAL SPIRITUALITY IN THE DEVELOPMENT OF COMPETITIVE CULTURE IN UZBEKISTAN

Jasurbek Shakarov

independent researcher

Samarkand State University

Uzbekistan, Samarkand

ABOUT ARTICLE

Key words: culture of competition, national spirituality, constructive influence, cultural processes, education, ideology, development of society.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: From the first years of independence of our country, the issue of national pride, national idea and ideology, National Culture, National Education, the formation of national spirituality were put on the main agenda as one of the most pressing issues. However, it is considered a historically known fact that people's self-awareness can be transmitted precisely through their awareness of national spirituality.

This article analyzes the constructive influence of national spirituality in the development of competitive culture in Uzbekistan.

O'ZBEKISTONDA RAQOBAT MADANIYATI RIVOJIDA MILLIY MA'NAVIYATNING KONSTRUKTIV TA'SIRI

Jasurbek Shakarov

mustaqil tadqiqotchi

Samarqand davlat universiteti

O'zbekiston, Samarqand

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: raqobat madaniyati, milliy ma'naviyat, konstruktiv ta'sir, madaniy jarayonlar, ta'lim, mafkura, jamiyat rivoji.

Annotatsiya: Mamlakatimiz mustaqilligini dastlabki yillaridan boshlab milliy g'urur, milliy g'oya va mafkura, milliy madaniyat, milliy ta'lim, milliy ma'naviyatni shakllantirish masalasi eng dolzarb masalalardan biri sifatida asosiy kun tartibiga qo'yildi. Vaholanki, xalqning o'zligini anglashi aynan milliy ma'naviyatni anglashi orqali kechishi mumkinligi tarixdan ma'lum bo'lgan haqiqat sanaladi.

Ushbu maqolada O'zbekistonda raqobat madaniyati rivojida milliy ma'naviyatning konstruktiv ta'siri tahlil qilingan.

КОНСТРУКТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ НА РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ КОНКУРЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Жасурбек Шакаров

независимый исследователь

Самаркандский государственный университет

Узбекистан, Самарканд

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	культура конкуренции, национальная духовность, конструктивное влияние, культурные процессы, образование, идеология, развитие общества.	Аннотация:	С первых лет независимости нашей страны вопрос формирования национальной гордости, национальной идеи и идеологии, национальной культуры, национального образования, национальной духовности был поставлен на главную повестку дня как один из самых актуальных. Однако из истории известно, что самосознание народа может идти именно через осознание национальной духовности. В данной статье анализируется конструктивное влияние национальной духовности на развитие культуры конкуренции в Узбекистане.
------------------------	--	-------------------	--

KIRISH

Raqobat masalasi ham mustaqillik yillarida jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun juda muhim hisoblanib kelindi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish shartida monopolistik raqobatni oldini olish hamda mamlakatimizda adolatli, insofli, madaniyatli raqobat muhitini yaratish borasida qonunchilik tizimida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2012 yildayoq "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi va shu asosda bir qancha qonun osti hujjatlarining kuchga kirishi fikrimiz dalilidir. Raqobat muammosi yildan-yilga dolzarblashib, o'zgarib, o'zining turli darajalari, shakllari, ko'rinish va zamonaviy turklariga ega bo'lib borganligi sayin, u borasidagi qonunchilik tizimini ham yanada takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi. Bundan kelib chiqib mamlakatimizda 2023 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda "Raqobat to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Bu esa mamlakatimizdagi raqobat muammosi hamda uning takomillashtirish borasidagi yirik qadamlardan biri bo'ldi. Vaholanki jamiyatda raqobat madaniyatining qaror topishi faqatgina iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shib qolmasdan, balki milliy ma'naviyatni taraqqiy etishida ham konstruktiv ta'sir kuchiga ega ekanligi anglab yetildi.

ASOSIY QISM

Bizningcha, umumiy ma'noda ma'naviyat butun bir jamiyatning ichki, ruhiy, aqliy, his-tuyg'ulariga asoslangan olamida kechayotgan jarayonlar majmui sanaladi. Milliy ma'naviyat esa, ma'lum bir millatning o'ziga xos xarakter xususiyatlaridan, o'z mintalitetidan kelib chiqadigan, o'zining asrlar sinovidan o'tgan qadriyatlari, tili, dini, ongu-tafakkuriga asoslangan ruhiy-ma'naviy borlig'idir. Ma'lumki, "Millat deb kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit xududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligiga aytiladi.

Millatning umume'tirof etlgan belgilariga quyidagilar:

- 1) yagona til birligi;
- 2) yaxlit xudud birligi;
- 3) mushtarak iqtisodiy hayot kechirish yashash birligi;
- 4) urf-odat, qadriyatga asoslangan umumiy madaniyat birligi;
- 5) o'zligini anglatuvchi ruhiy birlik kiradi"[1].

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib shuni anglashimiz mumkinki, milliy ma'naviyat aynan millatga xos tushuncha hisoblanadi. Unda urf-odat ham, til va din ham, ruhiy xususiyat ham, qadriyat ham, madaniyat va milliy iqtisodiyot ham o'z aksini topadi. Demak, Yangi O'zbekistonda raqobat madaniyatini shakllanishi va taraqqiy etishida o'zbek xalqining milliy ma'naviyati, ya'ni o'z tili, qadriyatlari, urf-odati, madaniyati va o'z-o'zini anglab yetish jarayoni muhim amaliy ahamiyatga hamda konstruktiv ta'sir kuchiga ega sanaladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda "Raqobat to'g'risida"gi qonunida raqobat fenomenining ilmiy-nazariy, ma'rifiy-huquqiy, zamonaviy mazmun-mohiyati ochib berilishi bilan bir qatorda uning qo'llanilish sohasi, asosiy prinsip va tushunchalari, yo'nalishlari, ta'sir doirasi ham batafsil yoritiladi. Mazkur qonunning har bir bandi iamaliyoti va ijrosida bizningcha, milliy ma'naviyat muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan qonunning 4-moddasi asosiy tushunchalaridan biri "insofsiz raqobat" ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, "insofsiz raqobat — xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan yoki putur yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlari"[2] hisoblanadi. Ushbu mulohazalarga e'tibor qaratilsa, insofsiz raqobat, bu ma'naviyatsizlik natijasidir. Chunki, ma'naviyat, ayniqsa milliy ma'naviyatimiz nafaqat qonunchilikka, balki, muomala va muloqotda xushfe'llikka, birovning qalbiga ozor bermaslikka, kimgadir iqtisodiy va ruhiy zarar bermaslikka, yoxud or-nomusi, obro'siga putur yetkazishdan saqlanishga chaqiradi. Insofsiz raqobat esa ma'nan qashshoqlik oqibatida kelib chiqadi. "Raqobat to'g'risida"gi

qonunnnig 5-moddasida raqobat tushunchasini asosiy prinsiplari yoritib beriladi. Unga ko'ra raqobatning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi.

“Raqobat sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- insofli raqobat;
- qonuniylik;
- iste'molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- shaffoflik;
- tenglik”[3].

Ko'rib turganimizdek, qonunchiligimizga kiritilgan mazkur prinsiplar orqali ifodalangan tushunchalarning barchasi o'zbek milliy ma'naviyati tarkibiga azal-azaldan mavjud bo'lib kelgan, asrlar davomida xalqimizning qon-qoniga singdirib kelingan eng asosiy ma'naviy qadriyatlardir. Misol uchun insofli raqobat prinsipini oladigan bo'lsak, insof tushunchasi o'zbek xalqining xalq og'zaki ijodiyotidan tortib, butun bir diniy, ilmiy, ma'naviy, falsafiy tafakkurida o'z ifodasini topadi. Qadimiy dostonu-rivoyatlarimiz, ertak va afsonalarimiz, etnografik manbalarimiz, diniy, ma'naviy, falsafiy, ilmiy merosimizda ham bosh g'oya ma'naviyatga qaratiladi. Insof tushunchasi esa, ma'naviylikning eng asosiy elementlaridan biri sanaladi. “Insof (arabcha adolat, odillik, beg'arazlik) — adolat va vijdon bilan ish tutish tuyg'usi, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik”[4] dir. Bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, har qanday faoliyatda insofli bo'lish hamda uning mohiyatini qamrab oluvchi adolatlilik va vijdonlilik muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Aslida adolat tushunchasi ham to'g'rilik va haqqqoniylik, odillik ma'nolarini beradi. Ammo insof adolat tamoyilini ham o'z tarkibiga qamrab oluvchi keng va umumiy ma'naviy kategoriya sanaladi. Insof “bu arabcha so'z bo'lib..., “vijdon bilan, adolat bilan ish tutish” ma'nosini anglatadi. Bu so'zdan o'zbek tilida insofli, insofsiz sifatlari, insofsizlik mavhum oti yasalgan”[5]. Demak, qalb pokligidan, ruhiy holat barqarorligidan kelib chiqib, vijdonan yondashgan holda, to'g'rilik va odillik asosida har qanday faoliyatni olib borish bu, raqobatlashuvdagi insofililik prinsipini ifodalaydi. Insofililik prinsipini shakllanishi va taraqqiy etishida, faoliyat yurituvchi subyektlar tafakkuriga singdirilishida esa, o'zbek xalqining milliy ma'naviyati kuchli ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hattoki milliy ma'naviyatimizning asosiy tarkibiy elementlaridan biri hisoblanuvchi xalq maqollarida ham “insof” tushunchasiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, “Insof sari baraka”, “Insofi yo'qning iymoni yo'q”, “Insofli oshini yer, insofsiz boshini”, “Noinsofni tuz konda ko'r”, “Noinsofga erk bersang, elni talar” kabi maqollar shular jumlasidandir. O'zbek xalqining ulkan milliy-ma'naviy merosi namunasi hisoblangan mazkur maqollarda juda katta falsafiy ma'no mujassamlashgan. Birgina “Insof sari baraka” maqolini talqiniga e'tibor qaratilsa, bu tamoyil har qanday raqobat jarayonida, raqobatchi

tomonlarning faqat insof asosida faoliyat olib borsagina, ishining, faoliyatining boshlanishiyiq barokatli bo'lishligini anglab yetishida muhim konstruktiv ta'sir vositasi bo'la oladi.

Raqobat sohasidagi yana bir asosiy prinsiplardan biri hisoblanuvchi qonuniylikni shakllanishida ham o'zbek milliy ma'naviyati namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, "Adolat va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar bo'lib, ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat ham bo'lmaydi"[6]. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mazkur mulohazalarida ta'kid etilganidek, ma'naviyat, ayniqsa, milliy ma'naviyat adolatning qaror topishida eng muhim asoslardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, qonuniylik haqida fikr yuritilganda, qat'iylilik, adolat, haqiqat kabi tamoyillarni qamrab oluvchi tushuncha nazarda tutiladi. Bu tamoyillar esa, xalqimiz ma'naviy tafakkuriga juda qadimdan boshlab singdirib kelingan. Buyuk ma'naviy merosimiz namunasi hisoblangan "Avesto"dan tortib, islom, ta'limoti, tasavvuf, fiqh ilmi deymizmi, barchasida adolat, haqiqat, qonunning qat'iyligi ilgari suriladi. "Avesto"ning deyarli, har bir goh ba bitiklari, yasht va bandlari "Haqiqat oliy sharofatdir!" degan jumlar bilan boshlanishining o'ziyoq, xalqimiz milliy ma'naviyatiga azal-azaldan haqiqat va adolatga juda katta e'tibor qaratilganidan dalolatdir. Adolatning mazmun-mohiyati qadimdan to shu kundgacha deyarli o'rgarishlarga uchramagan. Bugungi zamonaviy falsafiy adabiyotlarimizda ham adolat tushunchasi juda ko'p marotaba yoritib o'tiladi. Jumladan faylasuf olimlarimiz J.Yaxshilikov va N.Muhammadiyevlarning mulohazalariga binoan "adolat deb, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy munosabatlarga kirishgan odamlarning o'z burch va vazifalarini jamiyat tomonidan o'rnatilgan axloqiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, me'yorlar talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona bajarishlarini o'zida ifodalovchi hatti-harakatlar tizimiga aytiladi"[7]. Demak, adolat tushunchasi faqatgina huquqiy mohiyatga ega bo'lgan tushuncha sifatida emas, balki o'ta keng qamrovli, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy mohiyatni ham qamrab oluvchi eng umumiy, murakkab tushunchalardan biri sifatida qoraladi. Unda vijdon, haqiqat, to'g'rilik, halollik, poklik, samimiylik kabi mezonlar ilgari surilib, umuminsoniy axloqqa zid bo'lgan yolg'on, xiyonat, hiyla-nayrang, g'iybat, tuhmat, zulm, poraxo'rlik, loqaydlik, beparvolik kabi illatlar qoralanadi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, adolat tushunchasi hamda qonunchiligimizda ilgari surilgan adolatlilik prinsipi yuqorida bir necha bor ta'kidlaganimizdek, qadim-qadimdan o'zbek xalqining qon-qoniga singdirib kelingan. Hattoki, buyuk Amir Temur imperiyasining bosh g'oyalaridan biri ham "Kuch – adolatdadir!" degan shior asosida faoliyat olib borgani tarixdan ma'lumdir. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni yangicha innovatsion strategiyasini ishlab chiqishda ham adolatga prinsipiga tayanilmoqda. Vaholanki, mamlakatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Adolat bo'lmasa, dunyo zimiston bo'ladi, hayotda hech qanday ma'no-mazmun bo'lmaydi..."[8]. Bu mulohazalardan kelib chiqib shuni ta'kidlashimiz

mumkinki, adolatlilik ham ma'naviy-axloqiy, ham huquqiy, ham ijtimoiy-falsafiy prinsip sifatida butun bir davlat va jamiyatni yo'lini yorituvchi, asosiy rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim mezon hisoblanadi. Mamlakatimizda har qanday sohada adolat prinsipining qaror topishida, avvalo, milliy ma'naviyat va madaniyatga, ajdodlar merosiga tayanilishi bosh qomusimizning "Muqaddima"sidayoq ifodalanadi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining dastabki sahifalarida bitilgan "Biz, O'zbekistonning yagona xalqi... inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, ... ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz"[9], deya ta'kidlangan jumlar fikrimiz dalilidir. Demak mamlakatimizda raqobat muhiti hamda uning qonuniylik prinsipining shakllanishi, avvalo, milliy ma'naviyatga asoslangan raqobat madaniyatini shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Raqobat sohasidagi yana bir asosiy prinsiplardan biri bu iste'molchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu prinsipni amalga oshishida ham bizningcha, milliy ma'naviyatning ta'siri kuchlidir. Milliy ma'naviyat qay darajada yuksak bo'lsa qadrlash tuyg'usi ham shu qadar yuksak darajada shakllanadi. Jamiyatda aksiologik omillarning amal qilishi esa, avvalo, inson omilini eng oliy qadriyat sifatida qaralishiga olib keladi. Insonning qadrlanishi, bu jamiyat a'zolarining qadrlanishi, ularning huquq va manfaatlari hamma narsadan ustun qo'yilishi bilan belgilanadi. Ma'lumki, iste'molchilar deyilganda, asosan, ma'lum bir xalq, ya'ni jamiyat a'zolari tushuniladigan bo'lsa, ularning huquq va manfaatlarini ustuvorligi, avvalo, o'zbek xalqi milliy ma'naviyatida eng muhim tamoyillardan biri sanaluvchi aksiologik tamoyil orqali amalga oshadi. Bugungi kunda deyarli butun bir jahon mamlakatlari qonunchilik sistemasida "inson, uning hayoti va manfaatlari hamma narsadan ustun" ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" buning yorqin dalilidir. Mamlakatimiz bosh qomusining ikkinchi bo'limi ham "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" ga bag'ishlanadi. Mazkur bo'limda o'z ifodasini topgan "VII bob. Shaxsiy huquq va erkinliklar", "VIII bob. Siyosiy huquqlar", "IX bob. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar" hamda "X bob. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari" kabi boblarning barchasi O'zbekistondada istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning manfaatlari va huquqlarining davlat tomonida kafolatlanganligini ifodalaydi. Albatta, barcha fuqarolar inobatga olinganda, har bir sohada faoliyat olib borayotgan raqobat subyektlari ham qamrab olinadi. Ammo, bu qonuniylik prinsiplariga amal qilinishi, uning hayotiy ifodasi, jamiyat hayotida to'la-to'kis

namoyon bo'lishi avvalo, jamiyat a'zolarining, ma'naviyatlilik, madaniyatlik, bilimlilik, vijdoniylik tamoyillari orqali amalga oshadi.

Raqobat sohasidagi eng muhim prinsiplardan yana biri shaffoflik va tenglik hisoblanadi. Ya'ni, har qanday raqobat jarayoni ochiq-oydin, xufyonalikdan xoli tarzda shaffof va teng amalga oshirilsagina, mazkur prinsiplar namoyon bo'ladi. Shaffoflik so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratilsa, ko'p holatlarda ilmiy, fizik, kimyoviy, biologik tizimlarda ishlatiladigan tushuncha mohiyatini beradi. Ya'ni, "Shaffoflik moddaning o'zidan yorug'likni o'tkaza olish xossasidir. Yorug'likni to'liq, yutmay o'tkazuvchi modda mutlaq shaffof deyiladi. Kundalik hayotda "shaffof" atamasi ostida faqat ko'rinuvchi yorug'likni o'tkazuvchi modda nazarda tutiladi; biroq umuman olib qaralganda, boshqa yorug'lik to'lqinlarini yutmay o'tkazuvchi modda ham shaffofdir (masalan, ko'rinuvchi yorug'likni o'tkazmaydigan qalin mato rentgen to'lqinlarini o'tkazadi, demak u rentgen nurlariga nisbatan shaffofdir)".[10] Ammo ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, huquqiy, falsafiy sistemalarda ham "shaffoflik" tushunchasi qo'llaniladiki, mazkur sohalarda ham shaffoflik deyilganda, aslida yashirin va xufyona, yovuz amallardan xolilik, ochiqlik, hamma uchun barobar, yorqin ko'rinish turishlik nazarda tutiladi. Demak, raqobat sohasidagi shaffoflikda ham turli g'irromliklardan yiroq bo'lgan, insofli, madaniyatli raqobat tushuniladi.

Raqobat sohasidagi "tenglik" prinsipi ham juda muhim prinsiplardan biri sanaladi. Tenglik nafaqat raqobat sohasida, balki butun bir jamiyat sistemasigda eng muhim prinsiplardan biridir. Deyarli butun bir jahon qonunchiligida har bir insonning millati, tili, dini, mavqei, iqtisodiy holati, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy-nazar teng ekanligi qat'iy tarzda belgilab qo'yilgan. Vaholanki, tenglik bo'lmagan joyda ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, hurmat-ehtirom bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'zbek milliy ma'naviyatining asoslari hisoblanuvchi, o'zaro hurmat (kattaga hurmat, kichikka izzat), andisha, or-nomus kabi tushunchalar raqobat sohasidagi tenglik prinsipining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz o'rinliki, o'zbek milliy ma'naviyati raqobat madaniyatining yanada takomillashuviga ta'sir etsa, o'z o'rnida madaniyatli raqobat ham milliy ma'naviyatimizning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunki madaniyatli raqobat jarayonida azaldan mavjud bo'lib kelgan qadriyatlar tiklanib boradi, an'analar unutilmaydi, milliy-ma'naviy, axloqiy tamoyillar saqlab qolinadi.

Ma'lumki, g'arb mamlakatlarida raqobat jarayoni uzoq yillar davomida davlatning ishtirokisiz ham o'z-o'zidan shakllanib kelganligi ayondir. Ammo mamlakatimizda to'liq va erkin raqobatni shakllantirishida, monopoliyaga qarshi kurashda, turli raqobatchi tashkilotlarni ko'payishida hamda milliy ma'naviyatga asoslangan raqobat madaniyatini qaror topishida bugungi kunda raqobat strategiyalarini ishlab chiquvchi davlatning ishtiroki muhimdir.

Bizningcha bu vaqtinchalik jarayon bo‘lib, asta-sekin jamiyatda o‘z-o‘zidan erkin raqobat muhiti shakllanib boraveradi. Demak, davlat raqobat jarayonidagi madaniyatli faoliyatni ta‘minlashda, me‘yorni belgilashda, turli kelishmovchiliklarni oldini olishda, raqobat qonunchiligini amalga oshirishda muhim funksional ustun hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda yangi O‘zbekistonda yangicha raqobatni shakllantirilishida bevosita mamlakatimizning bu boradagi oqilona siyosatiga tayanilishi muhim deb hisoblaymiz. Zero, O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuning 1-moddasidayoq “Ushbu Qonunning maqsadi tovar yoki moliya bozorlarida raqobatning cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni nazorat qilishni amalga oshirish hamda ularga chek qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan, raqobat sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat”[11], deb belgilab qo‘yilganligi fikrimizning yana bir dalilidir.

Ma’lumki iqtisodiy adabiyotlarda, raqobatlashuv jarayonida ustuvorlikka ega bo‘lishning bir qancha strategiyalari keltirilib o‘tiladi. Jumladan bu strategiyalarga quyidagilar kiradi:

- ✓ Hujumkor strategiya;
- ✓ Lider strategiyasi;
- ✓ Kurashga chaqiruvchi strategiya;
- ✓ Mudofaa strategiyasi;

Bundan tashqari “Strategiyaga yondoshishning keng tarqalgan 5 ta varianti mavjud bo‘lib ular quyida keltirilgan:

1. Xarajatlar bo‘yicha ilg‘orlik strategiyasi. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda to‘la xarajatlarni pasaytirishni ko‘zda tutadi. Bu esa ko‘p sonli xaridorni jalb qiladi.

2. Keng tabaqalashtirish strategiyasi. Kompaniya tovarlariga raqobatchi firmalar tovarlaridan farq qildiradigan o‘ziga xos chizgilarni berishga qaratilgan. Bu ham xaridorlarni jalb etishga yordam beradi.

3. Optimal xarajatlar strategiyasi. Xaridorlarga past xarajatlar va mahsulotni keng tabaqalashtirishni uyg‘unlashtirish hisobiga kimmatli tovar olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa uxshash tovarni ishlab chiqaruvchilarga nisbatan optimal xarajat va past baholarni ta‘minlashdan iboratdir.

4. Fokuslangan strategiya. Bunda strategiya past xarajatlarga asoslangan bo‘lib, xaridorlarning tor segmentiga yo‘naltiriladi. Bunda firma o‘z raqobatchilaridan ancha past baholar hisobiga o‘tib ketadi.

5. Ifodalangan strategiya yoki mahsulotni tabaqalashtirishga asoslangan bozor uyasi strategiyasi. Uning maqsadi - tanlangan segmentlar namoyondalarini ularning did va talablariga yanada to‘laroq javob beradigan tovar va xizmatlar bilan ta‘minlashdir”[12]. Mazkur

strategiyalarni keltirib o'tishimizning boisi shuki, mamlakatimizda ham yangi taraqqiyot yo'lini belgilanishida va amalga oshirilishida bugungi kunda raqobat jarayonidagi mazkur strategiyalar kuzatilmoqda. Ushbu strategiyalarning oqilona amalga oshirilishida, har qanday noqonuniy faoliyatlardan yiroq bo'lishida, haqqoniy, halol, insofli, shaffof, teng hamda madaniyatli raqobat ustunligi strategiyasining shakllantirilishida milliy-ma'naviy, axloqiy mezonlarga tayanilishi zaruriy shartdir.

XULOSA

Xulosa sifatida mulohaza yuritilganda:

Birinchidan, o'zbek xalqining milliy ma'naviyati, mamlakatimizdagi oqilona, adolatli, inson huquq va manfaatlari ustunligiga asoslangan, tenglik tamoyillariga amal qiladigan raqobat madaniyatini shakllanishiga konstruktiv ta'sir eta oladigan eng muhim fundamental, nazariy hamda amaliy tayanch hisoblanadi.

Ikkinchidan, madaniyatli raqobat jarayoni xalqimizning milliy ma'naviyatini yanada yuksalishida, saqlab qolinishida, vorisiylik tamoyili asosida avlodlardan avlodga o'tishida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Яхшиликов Ж.Я. Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Дарслик. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 91.
2. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni. 2023-yil 3-iyul, O'RQ-850-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni. 2023-yil 3-iyul, O'RQ-850-son.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati (ikkinchi jild), 2020.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati, 2003.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti // Uning o'zi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, -T.: O'zbekiston, 2017. – B. 432.
7. Яхшиликов Ж.Я. Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Дарслик. – Т.: Чўлпон, 2018. – Б. 266.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu maqsadlarimizga erishishning eng muhim sharti // Uning o'zi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, -T.: O'zbekiston, 2017. – B. 437.
9. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. –B. 3.
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shaffoflik>.
11. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonuni. 03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son. <https://lex.uz/docs/-6518381>
12. Abdullayev I.S. Marketing (Darslik) - T.: "Инновацион ривожланнш нашриёт-матбаа уйи", 2020. - B. 170.